

**O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYODA TINCHLIK VA
BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI**

Andijon davlat chet tillari institute Roman-german va slavyan tillari fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti Nemis tili yo'nalishi 101-guruh talabasi

Ro'ziboyev Hadyatillo Ubaydullo o'g'li

[Tel: +998902575455](tel:+998902575455)

Ilmiy maslahatchi: Raupova M.

Annotatsiya: O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni annotatsiyasi, mamlakatning geosiyosiy ahamiyati va mintaqaviy hamkorlikdagi rolini ta'kidlaydi. O'zbekiston o'zining strategik joylashuvi va resurslari bilan, qo'shni davlatlar bilan mustahkam munosabatlar o'rnatish, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va madaniy almashinuvni rag'batlantirish orqali tinchlikni ta'minlashga intilmoqda. Mamlakatning yangi tashqi siyosati va diplomatik tashabbuslari, mintaqaviy xavfsizlik muammolarini hal etishga qaratilgan bo'lib, bu O'zbekistonni ishonchli va barqaror hamkor sifatida tanitmoqda. Annotatsiya O'zbekistonning mintaqaviy siyosati va uning barqarorlikka qo'shgan hissasini yoritadi.

Kalit so'z: O'zbekiston, Markaziy Osiyo, tinchlik, barqarorlik, geosiyosat, mintaqaviy hamkorlik, diplomatiya, iqtisodiy aloqalar

Аннотация: Аннотация о роли Узбекистана в обеспечении мира и стабильности в Центральной Азии подчеркивает геополитическую значимость и роль страны в региональном сотрудничестве. Благодаря своему стратегическому расположению и ресурсам Узбекистан стремится обеспечить мир путем установления прочных отношений с соседними странами, развития экономических связей и поощрения культурного обмена. Новая внешнеполитическая и дипломатическая инициативы страны направлены на решение проблем региональной безопасности, что делает Узбекистан надежным и стабильным партнером. Аннотация освещает

региональную политику Узбекистана и ее вклад в обеспечение стабильности.

Ключевые слова: *Узбекистан, Центральная Азия, мир, стабильность, геополитика, региональное сотрудничество, дипломатия, экономические отношения.*

Annotation: *Annotation of Uzbekistan's role in ensuring peace and stability in Central Asia highlights the country's geopolitical importance and role in regional cooperation. With its strategic location and resources, Uzbekistan seeks to ensure peace by establishing strong relations with neighboring countries, developing economic ties and encouraging cultural exchange. The new foreign policy and diplomatic initiatives of the country are aimed at solving regional security problems, which makes Uzbekistan known as a reliable and stable partner. Abstract highlights the regional policy of Uzbekistan and its contribution to stability.*

Key words: *Uzbekistan, Central Asia, peace, stability, geopolitics, regional cooperation, diplomacy, economic relations*

Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik muammolarining ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari

O'tmishda Turonzamin – Movaraunnahr – Turkiston – O'rta Osiyo va Qozog'iston, hozirda esa Markaziy Osiyo deb nom olgan bu ulkan xududda 5 mustaqil davlat mavjud bo'lib, ular O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlaridir.

Ularning xududi 4,4 mln kv. km aholisi 55 mln dan ortiqdir.¹ Bu davlatlarda yuzdan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilmoqda. Ularning dini, tili, dili, suvi, havosi bir va yeri tutash, madaniyati, urf-odatlar, an'analari bir-biriga yaqin. Ular nafaqat qo'shni balki qon qardosh bo'libketgan. Markaziy Osiyo kuchli iqtisodiy potensialga ega bo'lgan mintaq. Katta miqdorda ishchi kuchi, suv-energetika, transport-kommunikatsiyasi va yer resurslariga, tabiiy boylikka ega bo'lgan, SHarq bilan G'arbni bog'lovchi "Buyuk Ipak yo'li" ustida joylashgan va geostrategik jihatdan katta qulaylikka ega bo'lgan bu mintaqa dunyodagi rivojlangan davlatlarning diqqatini o'ziga tortmoqda.

Katta boylikka ega bo'lgan bu mintaqada diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm havfi kuchayib bormoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari orasida aholisining soni, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va intellektual salohiyati jihatidan, hamda mintaqa havfsizligini ta'minlash, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash jihatidan O'zbekiston yetakchi o'rinni egallaydi.²

Istiqlol tufayli O'zbekiston Mustaqil tashqi siyosat olib borish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu siyosat davlatimiz milliy manfaatlarining ustuvorligi, xalqaro huquq normalariga qat'iy rioya qilish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xududiy da'volar qilmaslik, nizoli masalalarni tinch yo'l bilan hal qilish, tajovuzkor xarbiy bloklarga qo'shilmaslik, yadro quroliga ega bo'lmaslik kabi tamoyillarga asoslanadi. SHu tufayli ham O'zbekiston Jaxon Hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallab, xalqaro maydonda katta obro'-e'tiborga ega bo'lmoqda. Bugungi kunda Markaziy Osiyoda joylashgan mamlakatlarni, demokratik, huquqiy, dunyoviy taraqqiyot yo'lidan qaytarishga urinayotgan turli xil ekstremistik kuchlar va markazlar bu yerdagi havfsizlikka raxna solmoqda.

Bu yovuz kuchlar diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilikni mintaqamizga yoyishga urinmoqda.

Giyoxvand moddalar va qurol-yarog'larni noqonuniy yo'llar bilan olib o'tish va sotish nafaqat Markaziy Osiyo balki butun dunyo havfsizligiga jiddiy taxdid solmoqda. XX asrning oxiri – XXI asr boshida jahon siyosiy xaritasida yuz bergan tub o'zgarishlar Markaziy Osiyoda ham keskin o'zgarishlarga olib keldi. Markaziy Osiyo respublikalari mustaqilikka erishgandan so'ng mintaqa xavfsizligi va barqarorligiga tahdidlar ana shu geosiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq. Bu tahdidlar bir qancha omillar zanjiridan iborat. Tojikistondagi birodarkushlik urushi, Afg'onistondagi nizolar, terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizm shular jumlasidandir. Mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo davlatlarida turli siyosiy, iqtisodiy, harbiy va ekologiyaga oid ko'plab muammolar to'planib qolganligi sir emas.

SHuning uchun ham Birinchi Prezidentiimiz I.A.Karimov BMT Bosh

Assambleyasining 48-50 sessiyalari va “Ming yillik” sammitida so'zlagan nutqida ilgari surilgan “Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash”, “Mintaqani yadro qurollaridan xoli zonaga aylantirish”, “Fuqarolar urushi olovida yonayotgan qo'shni Afg'onistonga qurol-yarog' yetkazib berishni to'xtatish”, “Mintaqalar havfsizligini barqaror etish orqali dunyo tinchligini ta'minlash”, “Xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi hamkorlikda kurashish” kabi muhim takliflari xalqaro jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Afg'onistondagi notinchliklar dunyo hamda Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligi va barqarorligiga tahdid soluvchi eng muhim omillardan biriga aylandi. SHu sababga ko'ra Markaziy Osiyo mamlakatlari tinch yo'l bilan Afg'onistonda tinchlikni o'rnatishdan va shu orqali mintaqada xavfsizlikni ta'minlashdan va uzoq muddatli barqarorlikka erishishdan manfaatdorlar.

Tadqiqot tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqada mavjud muammolardan yana biri bu hududda yadro va yalpi qirg'in qurollarini saqlamaslik, sinovdan o'tkazmaslik bilan bog'liq masalalar hisoblanadi. Bu sohadagi yutuq va kashfiyotlarni sinab ko'rish davom etayotganligi mintaqada davlatlari mustaqilligi va barqarorligiga xavf solmoqda.

Mintaqada mavjud bo'lgan muammolardan yana biri turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolar keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlar bilan bog'liq. Buni ayrim mamlakatlar hududida faoliyat ko'rsatayotgan ba'zi g'oyaviy mafkuraviy markazlar o'zlariga maqsad qilib olganlar. Ular bir davlat hududidan boshqa mamlakatlarga giyohvandlik moddalari, ta'qiqlangan adabiyotlar, turli qurol-yarog' kabilarni noqonuniy tarzda olib o'tishiga urinmoqdalar. Ularning ma'lum bir kuchlari Afg'oniston hududida turib, Markaziy Osiyo davlatlariga – O'zbekiston va Qirg'iziston hududiga, bu yerda yashayotgan xalqlar hayotiga qarshi tajovuzkorona harakatlar qilishga, begunoh insonlar qonini to'kishgaintilmoqda.

Xulos qilib aytganda, hozirgi davrda mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar, garchi birmuncha barqarorlashgan bo'lsa-da, biroq bu jabhadagi ziddiyat va qarama-qarshiliklar hamon saqlanib qolmoqda. Bu o'z navbatida barcha davlatlar

va xalqlarni tashvishga solmoqda. SHu boisdan ham jahonda tinchlik va taraqqiyotni ta'minlashda xalqaro tashkilotlarning roli va ahamiyati yanada oshib bormoqda. Ular xalqaro munosabatlarni sog'lomlashtirishning turli yo'llarini ishlab chiqishga harakat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Atabayeva, N., & Qodirov, A. (2024). BOBURIYLAR DAVRIDA HINDISTONNING BILAN TURKISTON DIPLOMATIK MUNOSABATLARI. Ilm-fan va ta'lim, 2(2 (17)).

2.Maxmudjanovna, A. N. (2023). GLOBALASHUV VA BUTUN DUNYO INTEGRATSIYASI SHAROITIDA MILLIY MADANIY ME'ROSLARNING MA'NAVIY-G'OYAVIY AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 22(7), 111-112.

3.Maxmudjanovna, A. N. (2023). YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA INSON HUQUQLARINING O'RNI MILLIY G'OYA VA YOSHLAR.